

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjayeva

29-avgust 2025 yil

«BIOGEOGRAFIYA»
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100 000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110 000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi

Q o‘qon-2025

Fan/modul kodi BIG1106		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS-Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/Rus		Haftadagi dars soatlari 6 soat
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Biogeografiya	60	120	180
2	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga biogeografik bilimlarning nazariy asoslarini, asosiy tushuncha va qonuniyatlarini, organizmlarning geografik qobiq va uning turli hududiy birliklaridagi biologik xamda ekologik rolini ochib berish, yerning umumgeografik qonuniyatlari asosida organizmlarning tarqalishi va yashash xususiyatlari tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotga tadbiiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi - talabalarga biogeografik tadqiqotlarning printsipi va uslublari, organizmlarning geografik tarqalishi, areallari, iqlim mintaqalari, yashash xususiyatlarini va jamoalarning yer yuzida geografik tarqalishi va taqsimlanish qonuniyatlarini tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari). II.I. Fan tarkibiga quyidgi mavzular kiradi. Ma'ruza mashg'ulotlari information va yo'naltiruvchi xarakterda bo'lib, talabalarga mazkur fanning mazmunini professor-o'qituvchi tomonidan yoritib berilishiga asoslanadi. 1-mavzu: Biogeografiya faniga kirish. Fanning predmeti, vazifalari, tadqiqot usullari. Biogeografiya – tirik organizmlar va ularning geografik tarqalishi, predmet – tirik tabiatning hududiy qonuniyatlari, vazifalar – organizmlar tarqalishi, turlar xilma-xilligi, tabiiy hududiy komplekslar, tadqiqot usullari – kuzatish, kartografik, statistik, taqqoslash, tarixiy, model usuli, bog'liqlik – iqlim, tuproq, relyef, suv omillari bilan aloqadorlik ahamiyati – tabiatni muhofaza qilish, ekologiya, xo'jalik faoliyatida qo'llanish 2-mavzu: Biogeografiya fanining rivojlanish tarixi Qadimgi davr – gerodot, aristotel, teofrast qarashlari, o'rta asrlar – geografik kashfiyotlar davri, XVIII asr – shved olimi A. Ainney, tasnif va geografik taqsimot, XVIII–XIX asr – A. Humbert, A. Von Humboldt, A. Vitter ishlari, Charlz Darvin – evolyutsion nazariya asosida biogeografiya rivoji, XIX asr oxiri – zoogeografiya va fitogeografiya yo'nalishlari, XX asr – landshaft, ekologik yondashuvlar, hozirgi davr – global ekologiya, biosfera, bioturli xilma-xillikni saqlash.			

3-mavzu: Biosfera

Biosfera – tirik organizmlar tarqalgan yer qobig'i, tarkibi – atmosfera, gidrosfera, litosfera yuqori qismi, asosiy omillar – quyosh energiyasi, suv, havo, tuproq. Tirik modda – o'simlik, hayvon, mikroorganizmlar, vazifasi – modda va energiya aylanishi, ekologik muvozanat, nazariya – V. I. Vernadsky qarashlari, ahamiyati – hayotning yagona muhiti, tabiatni muhofaza qilish.

4-mavzu: Ekosistema, biotsenoz va biogeotsenoz

Ekosistema – tirik organizmlar va ularning muhit bilan o'zaro aloqasi, biotsenoz – bir hududda yashovchi o'simlik, hayvon, mikroorganizmlar majmuasi, biogeotsenoz – biotsenoz + abiotik omillar (tuproq, suv, havo) bilan yaxlit tizim, tarkibiy qismlar – ishlab chiqaruvchilar (o'simliklar), iste'molchilar (hayvonlar), parchalaydiganlar (bakteriya, zamburug'lar), energiya oqimi – quyosh → o'simlik → hayvon → mikroorganizmlar, modda aylanishi – biologik va kimyoviy jarayonlar orqali uzluksiz aylanish, ahamiyati – ekologik muvozanatni saqlash, barqaror hayot muhiti yaratish

5-mavzu: O'simlik va hayvonlarning hayot formalari

Hayot formasi – organizmlarning tashqi muhitga moslashuv shakli, o'simliklar hayot formalari – daraxt, buta, butachalar, bir yillik va ko'p yillik o'tlar, ekologik guruhlar – gidrofit, kserofit, mezofit, halofit, psammofit, hayvonlar hayot formalari – suvda yashovchilar, quruqlikda yashovchilar, havoda uchuvchilar, ekologik moslashuvlar – yashash joyi, oziqlanish turi, harakatlanish shakllari, ahamiyati – tabiiy muhitda turlar xilma-xilligi va ekologik barqarorlikni ta'minlash.

6-mavzu: Organizmlarning tarqalish omillari va usullari

Abiotik omillar – iqlim, tuproq, suv, relief, biotik omillar – raqobat, yirtqichlik, simbioz, antropogen omillar – inson faoliyati ta'siri, tarqalish usullari – shamol, suv, hayvonlar, odam orqali

7-mavzu: Arealogiya

Areal – tur yoki guruhning tarqalish hududi, turlari – keng areal, tor areal, endemik areal, omillar – ekologik, tarixiy, geologik, antropogen.

8-mavzu: Tarixiy biogeografiya

Organizmlar tarqalishini tarixiy jihatdan o'rganadi, geologik davrlar va quruqlik-suvlarning o'zgarishi, qadimiy flora va fauna qoldiqlari (paleontologiya ma'lumotlari).

9-mavzu: Yer sharining floristik hukmronliklari va oblastlari. golarктиk o'simliklar hukmronligi

Floristik hukmronlik – o'simliklarning global tarqalish hududlari, golarктиk hukmronlik – shimoliy yarimshar o'simliklari, hududlari – yevropa, osiyo, shimoliy amerika, asosiy o'simliklar – ignabargli o'rmonlar, barg to'kuvchi daraxtlar, o'tloqlar.

10-mavzu: Paleotropik va neotropik o'simliklar hukmronligi

Paleotropik – afrika, janubi-sharqiy osiyo o'simliklari, asosiy o'simliklar – palma, banan, bambuk, tropik daraxtlar, neotropik – janubiy va markaziy amerika tropiklari, asosiy o'simliklar – kakti, kauchuk daraxti, tropik lianalar.

11-mavzu: Kap, Avstraliya va Golantarktika o'simliklar hukmronligi

Kap hukmronligi – Janubiy Afrika flora endemikligi, avstraliya hukmronligi – evkalipt, akatsiya, marsupial hayvonlar bilan bog'liq, Golantarktika hukmronligi – sovuq hudud o'simliklari, mox, lishayniklar.

12-mavzu: Yer sharining faunistik hukmronliklari va oblastlari. paleogey hayvonlar hukmronligi

Faunistik hukmronlik – hayvonlarning geografik tarqalish hududi, paleogey hukmronligi – Yevropa, Osiyo, Afrika shimoli, hayvonlari – sher, fil, karkidon, kiyik, maymun.

13-mavzu: Notogey, neogey va arktogey hayvonlar hukmronligi

Notogey – janubiy Amerika hayvonlari (Lama, Kapibara, Yaguvar), Neogey – shimoliy Amerika hayvonlari (bizon, ayiq, los), Arktogey – shimoliy yarimshar hayvonlari (bo'ri, tulki, quyon).

14-mavzu: O'zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” haqida ma'lumot

Qizil kitob – yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlar ro'yxati, maqsad – flora va faunani muhofaza qilish, nashr etilishi – 1979-yildan boshlab, toifalar – yo'qolib ketgan, kamayib borayotgan, kam uchraydigan turlar.

15-mavzu: O'zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” o'simlik va hayvonlar muhofaza qilish

O'simliklar – saksovul, qizil kitobdagi lola turlari, archalar, hayvonlar – jayron, oqqush, qulon, baliq turlari, muhofaza choralar – qo'riqxonalar, milliy bog'lar, sun'iy ko'paytirish.

III. Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlari ma'ruza mashg'ulotlari asosida tayyorlangan bo'lib, nazariy egallangan bilimlarni mustahkamlash funksiyasini bajaradi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Biogeografiya faniga kirish. Fanning predmeti va vazifalari
2. Biogeografiyaning asosiy tarixiy taraqqiyot etalpari
3. Biogeografik tadqiqot uslublari
4. Yashash muhitlari, ekologik omillar, adaptatsiya

5. Turli tarixiy davrlarda olimlarning ilmiy ishlarida biosfera haqidagi gipotezalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi
6. Biosferada organizmlarning moddalarning aylanma harakatidagi roli
7. Areal tushunchasining tur, turkum va sistematik guruhlarining geografik xarakteristikasi ekanligi
8. Madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlari haqidagi N.V. Vavilovning ta'limoti
9. Yer sharining floristik hukmronliklari va oblastlari. Golarktik o'simliklar hukmronligi
10. Paleotropik va neotropik o'simliklar hukmronligi
11. Kap, Avstraliya va Golantarktika o'simliklar hukmronligi
12. Uy hayvonlarining kelib chiqishi va zamonaviy tarqalish markazlari
13. Yer sharining faunistik hukmronliklari va oblastlari. Paleogeoy hayvonlar hukmronligi
14. Notogeoy, Neogeoy va Arktogeoy hayvonlar hukmronligi
15. Yer iqlimi. Zonallik

Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik axborot texnologiyalar qo'llanilishi lozim.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limtopshiriqlarimazkur kurs mazmunini to'liq qamrab olish maqsadida tayyorlangan bo'lib, nazariy egallangan bilimlarni kengaytirish, talabalarning mustaqil o'qish faoliyatini yo'lga qo'yishga asoslangan. Mazkur kursdagi modullar yuzasidan topshiriqlar amaliy xarakterda bo'lib talaba tomonidan mustaqil o'zlashtirilishi va topshirilishi shart.

1. Floristik, faunistik va biotik regionlarni ajratish prinsiplari va ularning tartibi.
2. Jamoalarni muxofaza qilishda zonal va regional farqlarni hisobga olish.
3. Turli zonlardagi jamoalardan x o'jalikda foydalanish.
4. Okeandagi organizmlar jamoalari.
5. Bioxilmaxillik t o' g'risidagi Konvensiya (Rio-de-Janeyro, 1992)
6. Tirik tabiat obyektlarining noqonuniy savdosi va uning bioxilmaxillikning qisqarishiga ta'siri.
7. Organizmlarning tarqalish areallari
8. Biotsenoz
9. Populyatsiya
10. Ekologik tizimlar
11. Hayvonlarning kelib chiqish markazlari va ularning tarqalish y o'llari
12. O'simlik va hayvonlarning yer sharida tarqalish qonuniyatlari
13. Orollar faunasi va florasining shakllanish y o'llari.
14. Oriental biofilotik dunyo
15. Efiopiya biofilotik dunyo
16. Madagaskar biofilotik dunyo
17. Kap biofilotik dunyo

	18. Avstraliya biofilotik dunyo 19. Antarktik biofilotik dunyo 20. Neotropik biofilotik dunyo 21. Neoarktik biofilotik dunyo 22. Polearktik biofilotik dunyo 23. Golarktik floristik dunyo 24. Paleotropik floristik dunyo 25. Neotropik floristik dunyo 26. Avstraliya floristik dunyo 27. Kap floristik dunyo 28. Antarktik floristik dunyo 29. Dunyo okeanining zoogeografik oblastlari 30. Yer sharining quruqlik faunasi Mustaqil mavzular b o'yicha talabalar tomonidan referat, maqola, ESSE, prezentatsiyalar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3	V. Fan o`qitilishining natijalari/ Kasbiy kompetentsiyalari Fan ozlashtirish natijasida talaba: • zamonaviy biogeografiyaning asosiy nazariy yondoshuvlari va tamoyillari; asosiy biologik taksonlar areallarining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, areallar tipologiyasi; quruqlikni biotik rayonlashtirishdagi asosiy prinsiplar va yondashuvlar; biom turlarining tarkibiy va funktsional xususiyatlari, Yerdagi biologik xilma-xillikni tabaqalashtirish (differentsiallashtirish) ning geografik qonuniyatlari haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; • biogeografik obyektlarning tabiiy sharoitlar va muhit omillari bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qila olish, tabiatni boshqarish va bioxilma-xillikni saqlash muammolarini xal qilishda biogeografik xaritalarni o'qish va biogeografik ma'lumotlarni sharxlay olish, biogeografik tavsiflarni tahlil qilish va turli biogeografik k o'rsatkichlarning ahamiyatini baholashni bilishi va ulardan foydalana olishi; • biogeografik obyektlar va hodisalarni taxlil qilishning umumiy tamoyillari, biogeografik obyektlarga nisbatan qiyosiy geografik usullar, bioxilma-xillikni baholash va saqlashning asosiy printsiplari va yondashuvlari asosidagi k o'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg'ulot (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	VII. Kreditlarni olish uchun talabalar

	Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, taxlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayon va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha testni topshirish.
6	Asosiy adbiyotlar 1. Françoise Gaill va Dominique Joly. "BIOGEOGRAPHY" An Integrative Approach of the Evolution of Living "ISIE in Wiley logosi nashriyoti 2021 yil Britaniya 2. M.K.Qalandarova "Biogeografiya" o'quv q o'llanma Toshkent – 2024 yil 3. A.S.Yuldashev., N.T.Shamuratova., O.M.Mamaraximov., T.X.Maxkamov., N.M.Naraliyeva "Biogeografiya" Darslik. Toshkent – 2024 yil. 485 bet. 4. A.J.Habibullayev., N.K.Mamutov., Ya.I.Ametov., B.T.Kurbanliyazov., G.N.Ogureeva "Biogeografiya" Darslik. "Metodist nashriyoti" Nukus – 2024 yil. 468 bet. 5. Hilty, J. A., Worboys, G. L., Keeley, A., Woodley, S., Lausche, B. J., Locke, H., ... & Tabor, G. M. (2020). Guidelines for conserving connectivity through ecological networks and corridors. IUCN. 6. Teenpani Bypass, Behind Transport Nagar, Haldwani 263139 (Nainital), Uttarakhand, India. "Bio-geography" First (2024) Qo'shimcha adabiyotlar 1. Радченко Т.А., Михайлов Ю.Е., Валдайских В.В. Биogeография. Екатеринбург, Издательство Уральского университета. 2015. 2. Жумаханов Ш.З. Биogeография асослари. Наманган, 2017. 3.Izzatullaev Z.I. Boymurodov X.T. Qudratov J.A. Biogeografiya fanidan amaliy mash g'ulotlar. Uslubiy q o'llanma. 2012. 4. Киселев В.Н. Биogeография. Минск, 2004. 5. Mark V. Lomolino Brett R.Riddle Robert J. Whittaker James H. Brown. Biogeography 2010.Sinauer Associates Inc Internet saytlari: 1.http:// www.ziyonet.uz 2. https://bio.msu.ru/study/specialty/
7	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8	Fan/modul uchun mas'ul: X.Abdinazarov – Qo'qonDU, "Biologiya" kafedrasi dotsenti
9	Taqrizchilar: M.Madumarov– Qo'qonDU, "Biologiya" kafedrasi dotsenti V. Isaqov - Qo'qonDU, "Geografiya va iqtisodiy bilimlar" kafedrasi professori, b.f.d.